



Mavlonov Bahodir,

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot iskituti bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD)*

OILADA O'SMIR YOSHIDAGI BOLALARNING HUSHYORLIK VA OGOHLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.501>

Annotatsiya. Bugungi kunda axborot oqimi tezlashuvi, texnologiyalar kundan kunga rivojlanishi natijasida o'zib kelayotgan yosh avlodda axborot xavfsizligini ta'minlash, ularda axborotlarga nisbatan hushyorlik va ogoqlik fazilatlarini shakllantirish muhim dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ham qo'yilgan muammo yuzasidan pedagogik faoliyatni rivojlantirish, jumladan, buning uchun oila va maktab hamkorligini muntazam yo'lga qo'yish, NLD texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, muayyan texnologiyalar ishlab chiqish, pedagogik faoliyatni takomillashtirish yo'llari tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: axborot, axborot xavfsizligi, texnologiya, o'smir, hushyorlik, ogoqlik, NLD texnologiyasi, kompetentlik, oila-maktab hamkorligi, vositali komponent, amaliy komponent, axborot-tahliliy kompetensiyasi.

Аннотация. На сегодняшний день, в результате ускорения информационного потока и ежедневного развития технологий, одной из важных актуальных педагогических задач является обеспечение информационной безопасности подрастающего молодого поколения, формирование у них качеств бдительности и осведомленности по отношению к информации. В данной статье также анализируются пути развития педагогической деятельности по поставленной проблеме, включая регулярное налаживание сотрудничества семьи и школы, использование технологий NLD, а также разработку определенных технологий и совершенствование педагогической деятельности.

Ключевые слова: информация, информационная безопасность, технология, подросток, бдительность, осведомленность, технология NLD, компетентность, сотрудничество семьи и школы, инструментальный компонент, практический компонент, информационно-аналитическая компетенция.

Annotation. In today's rapidly evolving world of information flow and daily technological advancements, ensuring information security for the upcoming young generation and cultivating qualities of vigilance and awareness towards information has become one of the crucial pedagogical tasks. This article analyzes the development of pedagogical activities addressing this issue, including the systematic establishment of family-school cooperation, the utilization of NLD technologies, as well as the development of specific technologies and ways to enhance pedagogical practices.

Keywords: information, information security, technology, adolescent, vigilance, awareness, NLD technology, competence, family-school cooperation, instrumental component, practical component, information-analytical competence.

Kirish. Jahon miqyosida axborotlar globallashuvi, integratsiyalashuv va xalqarolashuv jadalligi o'sib kelayotgan avlodda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mas'uliyatli munosabatni tarbiyalash, ijtimoiy daxldorlik va javobgarlik tuyg'usini rivojlantirish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni taqozo etmoqda. AQSH, Yaponiya, Rossiya, Yevropa Ittifoqi davlatlarida o'quvchi-yoshlarni axborot, ma'naviy xurujlardan himoya qilish maqsadida "Internetdagi ko'ngilochar dasturiy ta'minot uchun maslahat kengashi (Recreational Software Advisory Council on the Internet – RSACI)", Internetda bolalarni himoya qilish tashabbusi (Child Online Protection Initiative), Xavfsiz Internet Markazi, Raqamli Yevropa Dasturi (Digital Europe Programm) kabilarning faoliyati tizimli yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan olg'a surilayotgan "fuqarolik" va "tinchlik uchun" ta'lim g'oyalarini amaliyotga joriy etish umumiy o'rta ta'lim maktablari va oilaning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatni pedagogizatsiyalash orqali o'quvchi-yoshlarda XXI asr uchun xos axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, shaxsiy o'zlikni anglash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishning istiqbolli modellarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Inson tafakkuri, aql va zakovatining mahsuli bo'lgan Internetning jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va boshqa jabhalar taraqqiyotidagi o'rni salmoqli ekanini inkor etib bo'lmaydi. Bugungi kunda internetdan nafaqat kompyuter, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniya, telefon va uyali aloqa vositalari orqali ham foydalanish keng tarqalgan. "Internet ommaviy, tezkor ma'lumot olish manbayi bo'lib, u quyidagi imkoniyatlarni ochib bergani uchun, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashgan¹:


- real vaqt rejimida cheksiz norasmiy muloqot qilish;
- ko'ngilochar o'yinlar, filmlar, musiqa, video-o'yinlarni ko'rish;
- reklama va tijorat uchun foydalanish;
- intellektual, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- masofaviy ta'lim olish imkoni".

¹ Тайлоков И., Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш ЎзПФТИ © "Камалак" нашриёти Тошкент – 2017 – 172 б.

XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida hayotning deyarli barcha jabhalariga hamda inson faoliyatiga kirib keldi. Bugungi kunda Internet texnologiyalari nafaqat jismoniy (tarmoqlar, kompyuterlar, dasturiy ta'minot, aloqa kanallari va b.), balki mantiqiy (xizmat ko'rsatish, resurslar, navigatsiya) aspektlarda ham mavjudligini ko'rish mumkin. Yangi jamiyatni shakllantirish jarayonini axborot texnologiyalarining imkoniyatlarisiz tasavvur qilib bo'lmagani uchun O'zbekistonda 2004-yil 11-fevralda qabul qilingan va 2021-yil 30-martda ayrim o'zgartirishlar kiritilgan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun² bilan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish jarayoni nazoratga olingan va axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining aniq yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Axborot ko'lami, uning zamonaviy xususiyatlari va ta'sir doirasi kengayishi oqibatida aholi, jumladan, o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish masalasi jamiyatning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bunda oila va oliy ta'lim hamkorligi asosida yoshlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, bola o'smirligida mustaqil qaror qabul qilishni o'rganmasa, katta hayotda ham uni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. O'zbekistonda bugungi kunda 10–19 yoshdagi o'smirlar soni 5 769 928 nafarni tashkil etib, mamlakat aholisining qariyb 16 foizini tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda 2009–2022-yillar oralig'ida 10–19 yosh oralig'idagi o'smirlar soni dinamikasi

² Ўзбекистон Республикаси "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги Қонун <https://lex.uz/docs/52268>

Keltirilgan rasmdan ko‘rish mumkinki, so‘nggi 14 yil davomida mamlakatimizda o‘smirlar soni 2009–2017-yillar oralig‘ida biroz kamayish tendensiyasini namoyon qilgan bo‘lsa-da, 2017-yildan 2022-yilga qadar o‘sinh holatini ko‘rsatmoqda.

Oilalarda va ta‘lim muassasalarida o‘smir yoshidagi bolalarda turli axborot manbalari va Internet orqali tarqatilayotgan turli axborotlarga immunitetni shakllantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Yoshlar forumida shunday ta‘kidlaydi: “Afsuski, ba‘zi yoshlarda Internetdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikma va madaniyati yetarli emas, balki shunchaki ko‘ngilochar vosita deb bilishadi. Mana shunday mavkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo‘lishi, har bir masalada, avvalo, Vatan manfaatini o‘ylab ish tutishi zarur”. Zero, rivojlangan, keng ko‘lamli axborot makoni ijobiy va salbiy ta‘sirilariga ega bo‘lib, inson qalbi va ongiga tez ta‘sir qila olish xususiyati tufayli ezgu va yovuz kuchlarning kurash maydoniga aylangan holda axborot xavfsizligini ta‘minlash masalasi bilan birgalikda o‘shib kelayotgan o‘smirlarning ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirish, shu yo‘nalishda tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlar olib borish, natijalarini tatbiq qilish dolzarb sanaladi.

Axborot-psixologik xavfsizligi ta‘minlanmasdan shaxs, davlat, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy, harbiy va boshqa sohalaridagi xavfsizligini himoya qilish qiyin. Voyaga yetmagan bolalarda axborot-psixologik xavfsizligini ta‘minlashda uning quyidagi komponentlarini (tarkibiy qismlari) bilish zarur, ya‘ni tahdidlar, uning obyektlari, manbalari, maqsadlari, axborotni g‘ayriqonuniy tarzda qo‘lga kiritish usullari, axborotni himoyalash yo‘nalishlari, usullari, vositalari kabilar ajratiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, bolalarni turli tahdidlardan himoyalash uchun g‘ayriqonuniy harakatlarga befarq bo‘lmaslik, ularning oldini olish, axborot manbalariga ruxsatsiz kirishga yo‘l qo‘ymaslik, zarur paytda qarshilik ko‘rsatishni ta‘minlovchi turli tadbirlar va usullarni qo‘llash taqozo etiladi.

Rus tadqiqotchisi Y.L.Dotsenkoning ta‘kidlashicha, axborot-psixologik xavfsizlik – bu bevosita voyaga yetmagan o‘smirlarning ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalaridan,

muqaddas ideallaridan, e‘tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir. Demak, axborot-psixologik xavfsizlikka ehtiyoj, eng avvalo, inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, jumladan, urf-odatlar, an‘analalar, tarixiy va madaniy meros, avlodlar vorisiiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga ma‘naviy ruhiy ta‘sir ko‘rsatuvchi buzg‘unchi g‘oyalarning mavjudligidan kelib chiqadi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligini ta‘minlash ta‘lim oluvchilarda axborot iste‘moli madaniyatini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. O‘smirlarda axborotlar olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish, ularda axborot iste‘moli madaniyatini tarbiyalash hayotiy ahamiyatga ega. Demak, “axborot xavfsizligi” tushunchasining asosiy mazmuni axborot xavfsizligini ta‘minlash, axborot makonida o‘zaro birgalikda harakatlanayotgan subyektlarni zararli axborotlar ta‘siridan himoya qilish, xavfsiz axborot muhitini shakllantirish vositasida o‘smirlarning axborot olish ehtiyojini qondirishda o‘z ifodasini topadi.

Hushyorlik va ogohlik fazilatlarining mohiyatini anglash maqsadida mazkur tushunchalarning interpretatsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. *Hushyorlik* (бдительность, vigilance) – bu insonning kutilgan va kutilmagan hodisalarga tezda javob berishga tayyorligini ifodalovchi ruhiy holat, shuningdek, insonning axloqiy va irodaviy sifati. Zamonaviy psixologiyada hushyorlik, doimiy konsentratsiya (e‘tiborda bo‘lish) deb ham ataladi, uzoq vaqt davomida diqqatni jamlash qobiliyati sifatida ta‘riflanadi³. Bu vaqt ichida odam ma‘lum bir maqsadli stimulning ko‘rinishini aniqlashga harakat qiladi. Noma‘lum vaqtda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan signalni kuzatadi⁴.

Umrining 53 yilini rus so‘zlarining lug‘atini yaratishga sarflagan yozuvchi, etnograf va leksikograf, folklor yig‘uvchisi, harbiy shifokor Vladimir Dal (1801–1872) hushyorlikni (бдительность) insonning “uxlamaslik, mudrab

³ Авторитарный режим в семье. Чем это грозит? <https://russkaja-skazka.ru/avtoritarniy-rezhim-v-seme-chem-eto-grozit/>

⁴ Sternberg R. Cognitive Psychology. Belmont: CA: Wadworth Cengage Learning., 2009 – 436 p. [https://en.wikipedia.org/wiki/Vigilance_\(psychology\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Vigilance_(psychology))

qolmaslik, sergak turish, nazorat qilish qobiliyati”⁵ sifatida ta’riflagan. Hushyor tabiatga ega bo’lgan shaxslar obyektlarni muhofaza qilish, harbiy ishlar, vasiylik, transport vositalarini boshqarish, kompyuter operatorligi kabi sohalar bilan shug’ullanishi mumkin⁶. Hushyorlik yoki hushyor ong uyquda ham yo’qolmaydi va psixoanalizdagi tashvish signaliga o’xshaydi⁷.

Ogohlik (осведомленность, awareness) – bu ong holati yoki idrok etilgan bilim sifati bo’lib, hodisalarni idrok etish, his qilish, bilish yoki xabardor bo’lish qobiliyati bilan ifodalanadi⁸. Ogohlik, birinchidan, biror narsani anglash yoki anglashning ichki, subyektiv holati⁹, ikkinchidan, hushyorlik, onglilik. Bu atama uzoq tarixga ega bo’lib, oddiy, ibtidoiy aniqlashdan tortib, murakkab kognitiv va emotsional hodisalarni chuqur anglashgacha bo’lgan keng doiradagi subyektiv hodisalarni bilishda namoyon bo’ladi.

O’smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish ularning axborot-tahliliy kompetensiyasining oshishiga olib keladi, ya’ni ularda yangi bilimlarni o’zlashtirish maqsadida turli xil va shakldagi axborotlarni qayta ishlash, tahlil qilish jarayoni orqali bilimlari, ko’nikmalari va shaxsiy tajribasini qo’llay olish qobiliyati shakllanadi. Mazkur jarayon vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir bilimlardan iborat bo’lishi mumkin. *Vositali* komponent axborot bilan ishlashning sodda texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi, ya’ni axborotlarni izlash va to’plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, axborotni tarqatish va axborot xavfsizligini ta’minlash. Amaliy komponent axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirishning metod va vositalarini tanlashda o’smirlarga erkinlik va mustaqillikni taqdim etadi. *Mustaqil* izlanishga doir komponent o’smirlarning mustaqil ravishda muammoni qo’yish, muammoni hal etish bo’yicha axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirish muddatlarini belgilash, axborotlarni izlash

jarayonida to’plangan materiallarni tahlil qilish metodlarini aniqlashtirish va tanlash bo’yicha butun bor salohiyatini ishga solishni talab etadi. Buning uchun o’smirlarning, birinchidan, dunyoqarashi, irodasi mustahkam bo’lishi, hayotga, ertangi kunga, o’zining kuch va imkoniyatlariga ishonchi bo’lishi muhim ahamiyatga ega. O’smirlar dunyoda va mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni, yangilanish va o’zgarishlar jarayonlarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan esa o’smirlarda milliy o’zlikni anglash, vatan tuyg’usi, hayotiy e’tiqod borasida tayanch va aniq fikrlar shakllanishi lozim. Shu sharoitda ularning axborot tanlash va har qanday axborotni tahlil qilib, so’ng qabul qilish yoki rad etish ko’nikmalari, ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllanadi.

Aytib o’tish kerakki, o’rta va o’rta maxsus ta’lim dargohlarining barchasida axborot xavfsizligi kurslari bo’lmasligi mumkin. Ammo o’qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar borasidagi vazifalari qatorida ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirish, o’quvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish va shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish, o’quvchilarning tarbiyaviy masalalari bo’yicha ota-onalar, psixolog va boshqa o’qituvchilar bilan individual uchrashuvlar o’tkazish kabi vazifalari o’smirlarning ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirishga, ta’lim dargohi va oilalarning hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Albatta, o’qituvchilarning ta’lim va tarbiya berishning jadal metodlari, ilg’or shakllarini, didaktik prinsiplarni, o’qitadigan o’quv predmeti bo’yicha darsni tashkil etish metodikasini chuqur bilishi o’quvchilarning yaxshiroq bilim olishini ta’minlaydi. Xitoy faylasufi Konfutsiy (m.a. 551–479-y.) ta’biri bilan aytganda, “eskini o’zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina ustoz bo’la oladi”. Bunga pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi hamda amaliyotini, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini; o’quv jarayonida zamonaviy pedagogik, axborot texnologiyalari hamda o’qitishning texnik vositalaridan, jumladan, neyrolingvistik dasturlash (NLD) texnologiyalaridan amaliy foydalanishni bilish kabi ko’nikmalar o’qituvchining salohiyatini oshirishga va ta’lim jarayonining qiziq bo’lishiga olib keladi.

O’smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirganda o’quv faoliyatining motivatsiyasi manbalarini keng ishlatish samarali

⁵ Педагогический словарь. https://spiritual_culture.academic.ru/243/

⁶ Энциклопедический словарь по психологии и педагогике https://psychology_pedagogy.academic.ru/2512/

⁷ Psychology Glossary <https://www.alleydog.com/glossary/definition.php?term=Awareness#>

⁸ Толковый словарь русского языка Ефремов <https://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/203945/>

⁹ Толковый словарь по психологии https://psychology_dictionary.academic.ru/5188/

natijalarni ko'rsatadi. Jumladan, ichki motivatsiya manbalari, ya'ni insoniy tug'ma yoki orttirilgan axborotga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari bilan belgilanadi. Tashqi motivatsiya manbalari esa shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanib, jamiyatning o'smirlardan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. O'quv maskani va oila o'smirlardan ko'p vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi. Ijtimoiy kutish har birimizdan ma'lum bilimlar, ko'nikmalar darajasi bo'lishini ifodalaydi. Masalan, 15 yoshli o'smir kasb tanlashi, 18 yoshda oliy ta'limga kirishi yoki harbiy xizmatga borishi kerak, degan fikr jamiyatda ommalashgan.

Ta'lim jarayonida pedagog tomonidan o'smir o'qishi, jumladan, hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishi uchun ham motivlarni shakllantira olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur motivlar ko'p hollarda o'smirlar hayotiy faoliyatidagi qarorlarining asosini tashkil etadi. Rus psixologi va pedagogika sohasi mutaxassisi V.A.Kruteskiy (1917–1991-y.) o'smirlarda uchraydigan motivlarning quyidagilarini alohida keltirib o'tgan:

- biror o'quv faniga qiziqish;
- vatanga foyda keltirish istagi;


- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish;
- oilaviy an'analarga rioya qilish;
- do'st-birolarlarga ergashish;
- moddiy ta'minlash va h.k.¹⁰

O'smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonida oila muhiti ularda mamlakat fuqarosining milliy ongi, qadriyatlar tizimi, axloqiy va huquqiy me'yorlar, dunyoqarash yo'nalishlari, ijtimoiy munosabatlar hamda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik munosabatlarni qamrab oladi. Samarali ijtimoiylashuvni o'smirning jamiyat va shaxsning barcha boyligi, xilma-xilligida rivojlanishi uchun eng qulay bo'lgan ehtiyojlar to'plami va ierarxiyasini egallashi, o'zlashtirishi va shakllantirishi jarayoni deb hisoblash mumkin.

Oilada o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish milliy-mafkuraviy tarbiya negizida amalga oshirilib, quyidagi sifatlar majmuyini o'z ichiga qamrab oladi (2-rasm).

Oila va ta'lim tashkilotining hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, oila va maktab integratsiyasini ta'minlash orqali o'smirlarda

¹⁰ Крутецкий В.А. Основы педагогической психологии. – М.: Просвещение, 1991. – 253 с.



2-rasm. Hushyorlik va ogohlik fazilatlariga doir sifatlar majmuyi

hushyorlik va ogohlik fazilatlariga asoslangan ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishga erishiladi.

Bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish haqida fikr yuritganda, avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, bunday o'ta muhim sifatlar shaxsga xos psixologik xususiyatlar hisoblanib, ular ijtimoiylashuv, shu jumladan, oiladagi tarbiyaviy ta'sir, albatta, shaxsiy namuna negizida shakllantiriladi. Eng zamonaviy xorijiy tadqiqotlar ham bolalarni xavfli, tavakkalga asoslangan xatti-harakatlarga undovchi asosiy omillar qiziquvchanlik va tengdoshlar bosimi bo'lsa, aksincha, hushyor bo'lishga, ehtiyotkorlik bilan harakatlanishga, avvalo, oila a'zolarining maslahatlari hamda gunoh amallardan qo'rquv asos bo'lishini ko'rsatmoqda¹¹. Keyinchalik katta hayotda inson tanlagan kasbiy yo'nalishida ogohlik va hushyorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi (masalan, uning kasbi ko'p sonli odamlar xavfsizligini ta'minlash, murakkab texnologik jarayonlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lishi) mumkin. Ammo o'sha kasblarga ta'lim jarayonida tayyorgarlik ko'rishda aynan oilada bolalikdan boshlab shakllantirilgan ogohlik, sergaklik sifati asos bo'lishini hisobga olganda bu borada oilaviy muhitning ta'siridan samarali foydalanish naqadar muhimligini anglaymiz.

Albatta, oilada bolalarning kamol topishi jarayonida ularda hushyorlik va ogohlik kabi muhim sifatlarni shakllantirish jarayoni bola shaxsiga muayyan pedagogik-psixologik ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi. Masalaning eng asosiy amaliy tomoni shundaki, bunday ta'sir natijador bo'lishi uchun uni amalga oshirishda to'g'ri yo'nalishlar tanlab olinishi kerak. Belgilangan maqsadda ta'sir yo'nalishini to'g'ri tanlash uchun esa bevosita hushyorlik va ogohlikning amaliy ifodasi, inson xatti-harakatlaridagi ko'rinishidan kelib chiqib yondashish asosli bo'ladi, deb hisoblaymiz. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ogohlik va hushyorlik, eng avvalo, bilish subyekti tomonidan atrof-muhitda bevosita yoki bilvosita xavf-xatar tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni, voqea-hodisalarni, shaxslarning harakatlarini o'z vaqtida, ya'ni ular qandaydir zarar yetkazishidan oldin

ulgurib qolishida o'z amaliy ifodasini topadi¹². Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, ogohlik va hushyorlikning yetishmasligi odatda uch asosiy sabab tufayli ro'y beradi:

1. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni aniqlashga yo'nalmaganlik. Bunga shaxs psixologik yo'nalishini belgilovchi tuzilmalar (qiziqish, ideallar, dunyoqarash va b.) atrof-olamdagi unga bevosita yoki bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan narsa-hodisalarni o'z vaqtida aniqlashga intilishni hosil qiladigan darajada motivlashtiruvchi quvvatga ega emasligi olib keladi. Ushbu sababning tub negizi ogoh va hushyor bo'lishning ahamiyatini to'la anglamaslik, voqelikni idrok etish va odamlar xatti-harakatlarini baholashda asossiz nekbinlikka (optimizmga) asoslangan sodda hayotiy tasavvurlardan iborat bo'ladi. Ushbu xususiyatlar sababli odam uni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitda hushyorlik uyg'otishi kerak bo'lgan, ehtiyot choralarini talab qiluvchi voqeliklar bo'lishi mumkinligini xayoliga ham keltirmaydi, ularni aniqlab olishga intilmaydi ham.

2. Ehtimol tutilgan xavf-xatarni elementar payqamaslik. Bunga bilish jarayonlari psixologiyasi nuqtayi nazaridan insonning diqqat hajmi torligi, muayyan obyektни idrok etishda uning foni, ya'ni yon-atrofidagi, unga nisbatan ikkinchi planda turgan narsa-hodisalarni sezmay qolishi sababchi qilib ko'rsatiladi. Bunday idrok jarayoniga nisbatan zamonaviy tadqiqotchilar "tunel nigoh" tushunchasini ishlatadilar. Buning ma'nosi shuki, odam xuddi tunel sharoitida faqat uzoqdagi chiqish joyiga tikilganicha, yon-atrofga e'tiborsiz qoladi. Boshqacha aytganda, bunday bir obyektда jamlanib qolgan va unga yondosh sohadagi predmetlarni, voqea-hodisalarni qamrab ololmaydigan, ularga taqsimlana bilmaydigan diqqat ogohlik va hushyorlik yetarli emasligining bir sababi bo'lishi haqida xulosaga kelish mumkin.

3. Ehtimol tutilgan xavf-xatarning darajasini anglamaslik. Bu yerda asosiy masala shundaki,

¹¹ Ajisukmo C.P. Why Some Adolescents Engage in Risk-Taking Behavior// International Journal of Educational Psychology. – Barcelona. – V.10. – №2. – P.143-171.

¹² Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.; Sarter M., Bruno J.P. Vigilance// Encyclopedia of the Human Brain. - San Diego: Academic Press, 2002. pp. 687-699; Харламенкова Н.Е., Тарабрина Н.В., Быховец Ю.В., Ворона О.А., Казымова Н.Н., Дымова Е.Н., Шаталова Н.Е. Психологическая безопасность личности: имплицитная и эксплицитная концепции. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2017. – С.167.

Ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirish bo'yicha amaliy ishlarning asosiy texnologiyalari

№	Texnologiyalar	Mazmun	Metodik yechim
1	Motivatsion texnologiya (o'zini yo'naltirishga o'rgatish)	Atrof-muhitdagi narsa-hodisalarda yashirin xavfni aniqlashga ichki hozirlik holatida bo'lish	Psixik holatni boshqarish qobiliyati, izlanuvchanlik motivatsiyasini rivojlantirish
2	Kognitiv texnologiya (aniqlashga o'rgatish)	Atrof-muhitdagi narsa-hodisalardagi xavf-xatar tashuvchi holatlarni o'z vaqtida payqash	Umumiy kuzatuvchanlik, figura ortidagi fonni payqash sifatini rivojlantirish
3	Akmeologik texnologiya (to'g'ri baholashga o'rgatish)	Atrof-muhitdagi narsa-hodisalardagi xavf-xatar darajasini obyektiv baholash	Qiyosiy tahlil, uzoq oqibatlarni anglash, voqea-hodisalarning sabablari tizimini ko'ra olish sifatini rivojlantirish

ehtimol, odam yetarlicha rivojlangan kuzatuvchanlik va diqqat taqsimlanishi xususiyatiga egadir va shu sifatlar evaziga tegishli bilinar-bilinmas ta'sirlarni, narsa-hodisalardagi salbiy o'zgarishlarni payqaydi, ammo ularning jiddiylilik darajasi, xavflilik ehtimolini past baholaydi, e'tiborga olishga arziydigan holat deb bilmaydi. Bunday beg'am munosabat ortida, albatta, bir tomondan, avvallari bunaqangi vaziyat va holatlarga duchor bo'lmaganlik sababchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamning o'ziga xos yengil yondashuvga moyilligi, me'yoridan ortiq hissiy ko'tarinki kayfiyatga egaligi asos bo'lishi mumkin.

Ushbu sabablardan kelib chiqqan holda o'smirlarda ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirishning asosiy texnologiyalarini belgilab olish imkoniyati tug'iladi (1-jadval).

Umuman olganda, oilada ota-ona va o'smir farzand o'rtasidagi munosabatlar tegishli shakl hamda uslubda tashkil qilinganda nafaqat umumiy tarbiyaviy vazifalarni, balki alohida olingan o'ta muhim tadbir sifatida ularda ogohlik va hushyorlik fazilatini shakllantirish jarayonini samarali ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Oiladagi ijtimoiylashuv jarayonida bolalarda ogohlik va hushyorlikni shakllantirish ishida ikki asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: xavf-xatar vaziyatiga nisbatan sezgirlikni hamda tegishli holatlarning xavflilik darajasiga munosib baho bera olish sifatini rivojlantirish. Oilaviy tarbiya taktikasida o'smir farzandlarda

ogohlik va hushyorlik fazilatlarini shakllantirish uchun amalga oshiriladigan pedagogik-psixologik chora-tadbirlar bolaga tegishli vaziyatni ko'ra bilish, to'g'ri baholash hamda shunday holatda mustaqil ravishda qanday xatti-harakatlarni shaxsan bajarishi mumkinligini o'rgatuvchi bo'lishi, uslubiy jihatdan aynan shunday ketma-ketlikda qo'llanishi lozim.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytganda, qator ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oiladagi tarbiya jarayoni ko'p hollarda oiladagi tarbiya uslublariga bog'liqligi tizimli ravishda asoslab berilgan. Shunga ko'ra, oila a'zolari tomonidan farzandlariga berilayotgan bilim va ko'nikmalar, g'amxo'rlik va muhabbat tuyg'ulari oiladagi tarbiya uslublarini belgilab beradi. Shuning uchun o'smirlarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlanishida oiladagi tarbiya uslubi hamda ota-onalarning farzandlari bidan o'zaro muloqot usullari asosiy o'rinni egallaydi. Oila va ta'lim tashkilotining o'smir yoshidagi bolalarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan hamkorlikdagi faoliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini oshirishning motivatsion, kommunikativ-faoliyatga yo'naltirilgan, kognitiv, refleksiv kabi pedagogik bosqichlarini hisobga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тайлоков И., Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш. – Тошкент: “Камалак” нашриёти, 2017. – 172 б.
2. Ўзбекистон Республикаси “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонун <https://lex.uz/docs/52268>
3. Авторитарный режим в семье. Чем это грозит? <https://russkaja-skazka.ru/avtoritarniy-rezhim-v-semechem-eto-grozit/>
4. Sternberg R. Cognitive Psychology. Belmont: CA: Wadworth Cengage Learning., 2009 – 436 p. [https://en.wikipedia.org/wiki/Vigilance_\(psychology\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Vigilance_(psychology))
5. Педагогический словарь. https://spiritual_culture.academic.ru/243/
6. Энциклопедический словарь по психологии и педагогике https://psychology_pedagogy.academic.ru/2512/
7. Psychology Glossary <https://www.alleydog.com/glossary/definition.php?term=Awareness#>
8. Толковый словарь русского языка Ефремов <https://dic.academic.ru/dic.nsf/efremova/203945/>
9. Толковый словарь по психологии https://psychology_dictionary.academic.ru/5188/
10. Крутецкий В.А. Основы педагогической психологии. – М.: Просвещение, 1991. – 253 с.
11. Ajisukumo C.P. Why Some Adolescents Engage in Risk-Taking Behavior// International Journal of Educational Psychology. – Barcelona. – V.10. – №2. – P.143-171.
12. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 119 с.
13. Sarter M., Bruno J.P. Vigilance// Encyclopedia of the Human Brain. – San Diego: Academic Press, 2002. pp. 687-699.
14. Харламенкова Н.Е., Тарабрина Н.В., Быховец ЮВ., Ворона О.А., Казымова Н.Н., Дымова Е.Н., Шаталова Н.Е. Психологическая безопасность личности: имплицитная и эксплицитная концепции. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2017. – С.167.